Sifatli ta'lim-yorqin kelajak
ISSN: 3060-4761

TerDPI ILMIY XABARNOMASI
SCIENTIFIC BULLETIN OF THE TerSPI
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК ТерГПИ

www.xabarnoma.terdpi.uz

IJTIMOIY-GUMANITAR

UDK: 32.323.342.53

O‘ZBEKISTONDA BOSHQARUVNI NOMARKAZLASHTIRISH SHAROITIDA SIYOSIY VA HUQUQIY MADANIYATNING UYG‘UNLIGINI TA’MINLASH MUAMMOLARI

Rasulov Hakim Mamanovich
Termiz davlat pedagogika instituti
falsafa va ma’naviyat asoslari kafedrasi mudiri,
siyosiy fanlar nomzodi, professor
E-mail: rhm1973@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada O‘zbekiston taraqqiyotining har bir bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlarning samaradorligi davlat siyosati va fuqarolarning siyosiy va huquqiy madaniyati bilan uzviy bog‘liq hodisa ekanligi tahlil qilingan. Boshqaruv tizimini nomarkazlashtirish nafaqat, ijroiya hokimiyati organlaridagi islohotlar, balki jamoatchilik bilan aloqalar, davlat xizmati sohadagi yangilanishlar “xalq davlat idoralariga emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak” prinsipi asoslanishi nazariy tahlil e’tildi. Boshqaruvda siyosiy-huquqiy madaniyat O‘zbekistonda ma’muriy tizimidagi islohotlarning siyosiy-huquqiy mohiyati hamda ijro hokimiyati tizimini modernizatsiya qilish va uni bugungi real talablarga muvofiqligini ta’minlashda namoyon bo‘lishi asoslantirilgan. Milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi sharoitida davlat boshqaruv tizimida siyosiy va huquqiy madaniyatning uyg‘unligini ta’minlashning zaruriyati Yangi O‘zbekistonda ma’muriy islohotlarni amalga oshirish maqsadlari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bu jarayon davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iborat ekanligi borasida nazariy xulosalar qilindi.

Kalit so‘zlar: Boshqaruvni nomarkazlashtirish, siyosiy madaniyat, huquqiy madaniyat, harakatlar strategiyasi, taraqqiyot strategiyasi, xalq, jamoatchilik, davlat, davlat organlari vertikal boshqaruv, konsepsiya.

ПРОБЛЕМЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ГАРМОНИИ ПОЛИТИЧЕСКОЙ И ПРАВОВОЙ КУЛЬТУРЫ В УСЛОВИЯХ ДЕЦЕНТРАЛИЗАЦИИ УПРАВЛЕНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация: В статье проанализирована эффективность реформ, проводимых на каждом этапе развития Узбекистана, как явление, неразрывно связанное с государственной политикой и политической и правовой культурой граждан. Децентрализация системы управления охватывает не только реформы в органах исполнительной власти, но и связи с общественностью, обновления в сфере государственной службы, что подтверждает принцип: «Государственные органы должны служить народу, а не наоборот». Политико-правовая культура в управлении обоснована политико-правовой сущностью реформ административной системы Узбекистана, их проявлением в модернизации системы

исполнительной власти и обеспечении ее соответствия современным требованиям. В условиях текущего этапа национального развития необходимость обеспечения гармонии политической и правовой культуры в системе государственного управления неразрывно связана с целями административных реформ в новом Узбекистане, которые заключаются в формировании гражданского общества на основе децентрализации государственного управления.

Ключевые слова: Децентрализация управления, политическая культура, правовая культура, стратегия действий, стратегия развития, человек, общественность, государство, государственные органы, вертикальное управление, концепция.

PROBLEMS OF ENSURING HARMONY OF POLITICAL AND LEGAL CULTURE UNDER THE DECENTRALIZATION OF ADMINISTRATION IN UZBEKISTAN

Annotation: The article analyzes that the effectiveness of the reforms implemented at each stage of Uzbekistan's development is a phenomenon inextricably linked with state policy and the political and legal culture of citizens. It was theoretically analyzed that not only the decentralization of the management system, reforms in the executive power bodies, but also public relations, updates in the field of public service are based on the principle that "the people should serve our people, not the public agencies." It is justified that the political-legal culture in management is reflected in the political-legal nature of the reforms in the administrative system of Uzbekistan, as well as in the modernization of the executive power system and its compliance with today's real requirements. In the conditions of the current stage of national development, the need to ensure the harmony of political and legal culture in the state administration system is inextricably linked with the goals of implementing administrative reforms in New Uzbekistan, and this process consists in the formation of civil society based on the decentralization of state administration. theoretical conclusions were made.

Keywords: Decentralization of management, political culture, legal culture, action strategy, development strategy, people, public, state, state bodies, vertical management, concept.

KIRISH. Davlat boshqaruvi va uning siyosiy, ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy tizimidagi amalga oshiriladigan islohotlar siyosiy-huquqiy madaniyatning tarkibiy qismi bo‘lgan boshqaruv madaniyati bilan uzviy bog‘liq. Boshqaruv madaniyati esa jamiyat siyosiy-huquqiy tizimidagi islohotlar jarayonida namoyon bo‘ladi. Boshqaruv tizimini isloh qilish va uning qonunchilik asoslarini mustahkamlash, ma’muriy islohotlar jarayonida nomarkazlashtirishning ustuvor masalalarini belgilab olish imkonini beradi. Boshqaruvni nomarkazlashtirishning hozirgi bosqichida siyosiy va huquqiy madaniyat, birinchidan, davlat boshqaruv mezonlarini, prinsiplarini demokratik talablar doirasida hayotga joriy etib borish; ikkinchidan, davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish bilan birga nodavlat va fuqarolik institutlari faoliyatining qonunchilik, huquqiy bazasini zamonaviy talablar asosida takomillashtirib borish; uchinchidan, ijroiya hokimiyati tizimini ratsionallashtirish hamda funksiyalar takrorlanishining oldini olish; to‘rtinchidan, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining ochiqligini ta’minlash, ularning fuqarolik jamiyati institutlari bilan hamkorligini mustahkamlash; beshinchidan, nomarkaz-lashtirishning milliy taraqqiyotimizga mos

samarali usullarini yaratish va bu jarayonda jamoatchilik nazorati mexanizmini yo'lga qo'yishga erishish kabi omillarda namoyon bo'ladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Ilmiy adabiyotlarning tahlili va jamiyat taraqqiyotidagi islohotlar dinamikasi davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish sharoitida siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash jarayonlarini siyosiy, huquqiy, falsafiy, sotsiologik aspektda o'rgangan tadqiqotchilar A.Tokvil, Jan Boden, Iogann Altuzius, I.B.Goptareva, E.Kodirov, I.N. Trofimova, B.Omonovlarning asarlarida, O'zbekiston Respublikasi birinchi rahbari I.Karimov hamda Prezident Sh.Mirziyoyevning davlat boshqaruvi va islohotlar strategiyasiga doira konseptual qarashlarida asoslantirilgan. Maqolani tayyorlash jarayonida tarixiylik, qiyosiy tahlil, sotsiologik tahlil, tizimlashtirish, tasniflash kabi tadqiqot usullardan foydalanilgan.

NATIJALAR VA MUHOKAMA. Darhaqiqat, taraqqiyotning har bir bosqichi fuqarolarning o'sha davrga xos bo'lgan siyosiy va huquqiy madaniyati bilan uzviy bog'liqdir. Shu ma'noda siyosiy va huquqiy madaniyat "jamiyatning milliy madaniy taraqqiyotining belgilovchi omil sanaladi"[1]. Boshqacha aytganda, siyosiy va huquqiy madaniyat shaxsning "jamiyat, davlat, millat va o'z manfaatlarini uyg'unlashtirish hamda himoya qila olish ko'nikmasini shakllantiruvchi mezondir"[1]. Siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligining zaruriyati 1) aholining mamlakat siyosiy-huquqiy hayoti bilan bog'liq irodasini aniqlash va amalga oshirish; 2) jamoatchilikni mamlakat taraqqiyoti, xalqning istiqboli, jamiyat va davlat boshqaruvi tizimi oldida turgan ustuvor masalalar yechimi yo'lida safarbar qilish; 3) milliy taraqqiyotni yangi bosqichga olib chiqish yo'lida jamoatchilikni uyushtirish, jipslashtirish, jamiyat rivoji qonuniyatlarini aniqlash kabilarda namoyon bo'ladi.

Mamlakat ijtimoiy-siyosiy hayotining barcha tarmoqlaridagi modernizatsiya jarayonlari uni harakatga keltiruvchi subyektlarning siyosiy-huquqiy ishtiroki bilan belgilanadi. Tadqiqot doirasida 2024-yil iyun oyida o'tkazilgan so'rovda jamiyat siyosiy-huquqiy madaniyati shakllanishiga muayyan pozitiv va negativ omillar ham ta'sir ko'rsatishini sotsiologik tadqiqotda ishtirok etgan respondentlarning fikri ham tasdiqlaydi. Xususan, siyosiy va huquqiy madaniyat shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi muammolar sifatida 27 foiz respondentlar mamlakatda siyosiy va huquqiy axborotning kamligini, 9 foizi davlat hokimiyati organlari faoliyati ochiqligining to'la ta'minlanmaganligini aytib o'tganlar. Salbiy omil sifatida yana 29 foiz respondentlar aholida siyosiy jarayonlarga nisbatan befarqlik holati mavjudligini ta'kidlaganlar. (1-rasm).


Tadqiqot natijalariga ko'ra, bir tomondan, siyosiy-huquqiy axborot, ochiqlik va erkinlik siyosati, qonun ustuvorligi, hokimiyat organlari faoliyati ochiqligi kabi omillar siyosiy-huquqiy madaniyatning o'zgarishlariga yordam bersa, ikkinchi tomondan, mamlakatda amalga oshirilayotgan modernizatsiya va transformatsiya jarayonlariga nisbatan befarqlik, loqaydlik tendensiyalarining saqlanib qolayotganligi siyosiy-huquqiy madaniyatni yuksaltirishga salbiy ta'sir qilmoqda.

Yangi O'zbekiston taraqqiyotida siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini ta'minlash uchun qaysi sohalarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligi xususida respondentlarning fikri qiziqarlidir.


Xususan, ularning 42,6 foizi ijtimoiy-iqtisodiy muammolar yechimiga, 32,4 foizi davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari ustidan jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga, 19,2 foizi rahbar kadrlar siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirishga, 4,5 foizi davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish siyosatini amalga

oshirishga, 0,9 foizi boshqa sohalarga jiddiy e'tibor qaratish lozimligini qayd etganlar. (2-rasm)

1-rasm. Aholi siyosiy-huquqiy madaniyatining shakllanishiga ta'sir ko'rsatuvchi omillar



2-rasm. Siyosiy va huquqiy madaniyatning o'zaro uyg'unligini taminlashda jiddiy e'tibor talab etuvchi sohalar



Jamiyat va davlat boshqaruv tizimini isloh qilish O‘zbekistonda siyosiy hayotning barcha sohalarini demokratlashtirish jarayonining muhim yo‘nalishlaridan hisoblanadi. Buning uchun esa aholining siyosiy faolligini oshirish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan siyosiy va huquqiy madaniyatni shakllantirish kerak bo‘ladi.

O‘zbekistonda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan chuqur va keng ko‘lamli islohotlar “inson manfaatlari hamma narsadan ustun” degan tamoyilni hayotga tatbiq etishga, pirovardida “xalq davlat organlariga emas, balki, davlat organlari xalqimizga xizmat qilishi kerakligi” prinsipini amalga oshirishga qaratilgan. Bu kabi islohotlar davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish jarayonlari bilan uyg‘unlikda amalga oshirilmoqda. Fransuz olimi A.Tokvil

Darhaqiqat, mamlakat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida keng ko‘lamli islohotlarning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining uyg‘un faoliyatini tashkil etishni talab qiladi. Bu xususda Sh.M. Mirziyoyev O‘zbekiston Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 26 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma’ruzasida alohida ta’kidlaganidek, vertikal boshqaruv tizimidagi muammolar sabab “qabul qilingan qonun hujjatlarida belgilangan 13 mingdan ortiq topshiriqlarning 20 foizi muddatida ijro qilinmagan. Bu Vazirlar Mahkamasi, qator davlat va xo‘jalik boshqaruvi idoralari rahbarlari va mahalliy hokimliklarning ishga mas’uliyatsiz yondashayotganidan dalolat bermoqda”[4].

Shuningdek, boshqaruv jarayonining samaradorligiga erishishda “fuqarolarning jamiyat boshqaruvidagi ishtiroki ulardan yuksak fuqarolik madaniyatiga ega bo‘lishni talab qiladi, – deb ta’kidlaydi professor B.Omonov. Shuningdek, u o‘z tadqiqotlarida – Fuqarolik madaniyati qanchalik yuksak bo‘lsa, jamiyatda shunchalik demokratik ta’kidlaganidek, “jamiyat taraqqiyoti tobora murakkablashib borayotgan jamiyatda hukumat hamma narsani markazlashtirilgan tarzda boshqarolmaydi.... Nomarkazlashtirish demokratiya tarafdori bo‘lgan mahalliy erkinliklarga asoslanadi, fuqarolar orasida javobgarlik hissini yuzaga keltiradi va davlatni avtoritar ravishda boshqarishni rad etadi. Nomarkazlashtirish demokratiya va siyosiy yetuklik taraqqiyotini aks ettiradi” [3]. Hokimiyatni nomarkazlashtirishning xalqaro tajribasi shuni ko‘rsatadiki, bu jarayon XVI asrning oxirida paydo bo‘lgan. Ushbu davr davlat boshqaruvini tashkil etishning eng yaxshi shaklini izlash va uning tarkibiy qismlari o‘rtasidagi munosabatlar tizimini qurish bilan ajralib turadi. O‘sha davrda nomarkazlashtirilmagan boshqaruvning asosiy tarafdorlari Jan Boden va Iogann Altuziuslar bo‘lgan[3]. jarayonlar rivojlanadi. Binobarin, O‘zbekiston huquqiy demokratik jamiyat qurishga intilib, fuqarolarning siyosiy ongi va madaniyatini yuksaltirishni demokratik jamiyat qurishning muhim omili deb biladi”[5].

Darhaqiqat, islohotlarning muvaffaqiyati nafaqat ijro hokimiyati tizimidagi muammolar yoki uning parlament va vakillik organlari bilan samara hamkorligining ta’minlanishiga bog‘liq, balki “fuqarolarda ham islohotlarga nisbatan daxldorlik hissi shakllanishi kerak. Ana shundagina ko‘zlagan maqsadlarga erishib, oldimizga qo‘yilgan vazifalarning to‘liq uddasidan chiqamiz”[4].

Davlat boshqaruv tizimida siyosiy va huquqiy madaniyat amaliyotiga aloqador yana bir muammo parlament instituti va mahalliy kengashlar faoliyati bilan bog‘liqdir. Boshqaruv tizimida siyosiy va huquqiy madaniyatning o‘rni parlament va mahalliy kengashlar ijro hokimiyatiga real ta’sir qilish imkoniyatining yuqoriligida namoyon bo‘ladi. O‘zbekiston prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “parlamentimiz haqiqiy demokratiya maktabiga aylanishi,

islohotlarning tashabbuskori va asosiy ijrochisi bo‘lishi kerak”[6].

XULOSA. Demak, yuqoridagilardan kelib chiqib, parlament va mahalliy kengashlar vakolatlarining kengayishi va jamiyat hayotidagi mas’uliyatini oshirish jarayonida siyosiy va huquqiy madaniyatning uyg‘unligini ta’minlashning quyidagi omillariga alohida e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

1) Mahalliy Kengashlar va mahalliy ijro hokimiyati tizimida “**vakolatlar bo‘linishi prinsipi” ta’minlanishiga to‘laqonli erishish lozim. O‘zbekiston** Konstitutsiyasining 120-moddasida ijro va vakillik organlarini bir-biridan mustaqil alohida mansabdor shaxslar boshqarishining huquqiy mexanizmi mustahkamlangan. Unga ko‘ra, “viloyat, tuman, shahar hokimi lavozimini egallab turgan shaxs bir vaqtning o‘zida xalq deputatlari Kengashining raisi lavozimini egallashi mumkin emas”[7]ligi belgilangan. Garchi yangi asosda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham ushbu muammoning qonuniy yechimi o‘z aksini topgan bo‘lsa-da, amalda tom ma’noda mahalliy darajada hokimiyatlar bo‘linish prinsipining amaldagi ijrosi ta’minlanishiga ehtiyoj hali ham saqlanib qolayotganligini kuzatish mumkin.

2) Hududlarda ijro hokimiyati va mahalliy Kengash organlari faoliyatida “bir-birini tiyib turish” mexanizmi to‘laqonlik ishlashi kerak. Amaldagi konstitutsiyamizning 92-moddasi tegishli bandiga ko‘ra “O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Senati a’zolari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qori Kengesi, viloyatlar, tumanlar va shaharlar davlat hokimiyati vakillik organlari deputatlarining tegishli qo‘shma majlislarida mazkur deputatlar orasidan yashirin ovoz berish yo‘li bilan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridan teng miqdorda – to‘rt kishidan saylanadi”[7] degan huquqiy norma mustahkamlangan. Amaliyotda hokimlarning, ayniqsa, barcha viloyat hokimlarining 100% Oliy Majlis senati a’zosi bo‘lishi holati kuzatiladi. Bu degani, Mahalliy Kengashlar faoliyatida hokimlarning bevosita va bilvosita ta’siri borligini bildiradi. Boshqacha aytganda, mahalliy kengashlar amalda hokimlar ta’siridan tashqarida emasligini ko‘rsatadi. Bizningcha, mahalliy kengashlarning ijro hokimiyatidan to‘la mustaqilligi hokimlar mahalliy Kengash deputati bo‘lishi mumkin emasligi qonunchilikda mustahkamlanishi bilan bog‘liq bo‘lib qolmoqda. Hokimlar faqat kengashlar oldida hududlardagi barcha masalalar bo‘yicha hisobdor bo‘lishi lozim. “O‘zbekiston – 2030” sterategiyasida belgilangan “mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlarini xalqning chinakam “ovoziga” aylantirish” bilan bog‘liq maqsadiga ko‘ra “hokimlarning mahalliy kengashga rahbarlik qilish amaliyotini to‘liq bekor qilib, kengash raisining huquqiy maqomi, asosiy vazifa va funksiyalari hamda javobgarlik doirasini aniq belgilash”[8] masalasini amalda ta’minlashga erishish lozim.

3) Rivojlangan mamlakatlarning ilg‘or boshqaruv va ijro hokimiyati organlarining shakllanishi borasidagi tajribalari yutuqlar asosida viloyat, shahar va tuman hokimlarini tayinlash tizimidan saylov tizimiga to‘liq o‘tishi lozim. Bu bir tomondan jamoatchilikni saylanadigan hokimlarga tom ma’noda yaqinlashtiradi. Ikkinchi tomondan esa, hokimlarning ham ijro hokimiyati tizimida mustaqilligi ta’minlanadi va “qo‘l boshqaruvi”dan butunlay qutilish va “tizimli boshqaruvga” o‘tish imkoniyati paydo bo‘ladi.

4) Parlament va mahalliy Kengashlarning ijro hokimiyati oldiga jamoatchilikni qiynayotgan muammolar yuzasidan hech qanday “sun’iy to‘siqlarsiz” so‘rov bilan murojaat qilish imkoniyatiga amalda ta’minlanishiga erishish lozim. Hammaga ma’lumki, aksariyat hollarda

jamoatchilik muammolari Parlament yoki mahalliy Kengashlar deputatlari tomonidan emas balki, OAVlari va ijtimoiy tarmoqlar orqali oshkor qilinmoqda va ijro hokimiyatning e'tibor qaratilishiga "majbur qilinmoqda".

5) Parlament va Mahalliy Kengashlar, xususan, deputatlar faoliyatiga nisbatan saylovchilarning ishonchini orttirishga erishish lozim. Shundagina xalq manfaatlari ta'minlanadi, jamoatchilik nazorati kuchayadi. Jamiyat manfaatlarini o'zida ifoda eta olmaydigan parlament va mahalliy kengashlar xalq minbariga, haqiqiy demokratiya maktabiga aylana olmaydi.

Ushbu muammolarning amaliy yechimi jamiyat hayotida siyosiy va huquqiy madaniyatni yanada yuksaltirish va milliy taraqqiyotning bugungi bosqichida ularning o'zaro uyg'unligini ta'minlash bilan uzviy aloqadordir. Shuningdek, xalqimizning davlat boshqaruvida ishtiroki bilan bog'liq siyosiy-huquqiy ong va madaniyatining o'sishi, jamiyatning demokratik qadriyatlar asosida rivojlanishi natijasi o'laroq milliy parlament va mahalliy Kengashlarda rivojlangan mamlakatlarga xos sifat va belgilarni o'zida mujassamlashtirib boradi.

Amalga oshirilayotgan islohotlarning pirovard maqsadi xalqimizga munosib imkoniyatlar yaratib beradigan demokratik davlat va fuqarolik jamiyatni qaror toptirishdan iboratdir. Shuning uchun milliy taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligini ijtimoiy zaruriyat sifatida amalga oshirish jamiyat hayoti va uning tarkibiy qismlari, elementlarining o'zaro aloqadorligi va mutanosib kelishligi hamda muayyan darajasida namoyon bo'lishi bilan bog'liqdir.

Shu jihatdan "siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligi" muammosiga oid turli yondashuvlar fikr va qarashlar asosida shunday xulosa qilish mumkinki, bu borada ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar hali yetarli darajada ishlab chiqilmagan. Bizningcha, milliy taraqqiyotining hozirgi bosqichida siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligini ta'minlashning samarali usul va vositalari sifatida quyidagi tashkiliy, siyosiy, huquqiy masalalarning yechimiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- siyosiy va huquqiy fanlar doirasida "siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligi" tushunchasining ilmiy-nazariy asoslanishiga, jamiyat va davlat boshqaruvi tizimida undan foydalanishning samarali rejasini ishlab chiqish;

- mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlarning muvaffaqiyati jamiyatning demokratlashuvi va qonun ustuvorligi prinsipining amaliyoti fuqarolarning siyosiy-huquqiy ongi va madaniyatning darajasiga bog'liq. Shuning uchun ham jamiyat taraqqiyotida siyosiy va huquqiy madaniyat uyg'unligini ta'minlovchi konsepsiya ishlab chiqilishi;

- siyosiy va huquqiy madaniyat targ'ibotini uyg'un olib borish, bu borada huquq tartibot organlari bilan ommaviy axborot vositalari, ijodiy uyushmalar, ta'lim muassasalari va boshqa jamoat hamda davlat tuzilmalari tashkilotlarini faoliyatining muvofiqligini ta'minlash va shu orqali siyosiy-huquqiy madaniyat targ'iboti samaradorligini oshirishga erishish;

- amalga oshirilayotgan ma'muriy islohotlarning tarkibiy qismi sifatida tuman, shahar, viloyat hokimlarini tayinlash tizimidan saylash tizimiga o'tkazishning huquqiy asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish;

Xulosa qilib aytganda, milliy taraqqiyotning hozirgi bosqichi sharoitida davlat boshqaruv tizimida siyosiy va huquqiy madaniyatning uyg'unligini ta'minlashning zaruriyati Yangi O'zbekistonda ma'muriy islohotlarni amalga oshirish maqsadlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu jarayon davlat boshqaruvini nomarkazlashtirish asosida fuqarolik jamiyatini shakllantirishdan iboratdir. Davlat hokimiyati boshqaruv

tizimini modernizatsiyalashtirish, hokimiyat tizimini ham gorizontal, ham vertikal bo‘linishiga, saylanadigan davlat organlarining o‘zaro muvozanatida rivojlanishiga asoslanadi.

.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Кадиров Э. Ёшларнинг ҳуқуқий ва сиёсий маданиятини юксалтириш. Монография. Тошкент. Ғ.Ғулом номидаги НМИУ. 2018. – Б. 177.

2. Особенности Французкой модели децентрализации государственного управления и развития местного самоуправления // https:// scienceproblems.ru/ osobennosti-frantsuzskoj/3.html

3. Гоптарева, И. Б. Политический анализ концепции федерализма: монография. Оренбург: Южный Урал, 2002. – Стр.38.

4. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. Т.3. Тошкент “Ўзбекистон” НМИУ 2019. – Б. 78.

5. Омонов Б. Концептуальные основы модернизации общества (Сравнительный анализ реформ Запада и Востока) Монография. Варшава-2020. – Стр 137.

6. Мирзиёев Ш.М. Парламентимиз ҳақиқий демократия мактабига айланиши, ислоҳотларнинг ташаббускори ва асосий ижрочиси бўлиши керак// Халқ сўзи, 2017 йил 13 июль.

7. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси. “Ўзбекистон” НМИУ 2023, – Б. 51.

8. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон – 2030” стратегияси тўғрисида”ги ПФ-158-сон Фармони. 11.09.2023.